FAXRIYOR SHE’RIYATIDA TUYG‘ULAR JILVASI

Mirkomilova Ruxsora
E-mail: ruxsoramirkomilova0@gmail.com

Qabul qilindi: 22.10.2025
Ko‘rib chiqildi: 23.10.2025
Tasdiqlandi: 24.10.2025

Kalit so‘zlar:
Faxriyor, zamonaviy o‘zbek she’riyati, lirizm, tuyg‘u, badiiy ifoda, poetik obraz, ruhiyat, his-tuyg‘u jilvasi, falsafiy mazmun.

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot ishida zamonaviy o‘zbek adabiyotining yorqin vakillaridan biri bo‘lgan Faxriyor ijodidagi tuyg‘ular ifodasi va ularning badiiy jilolanishi tahlil etiladi. Shoir she’rlarida inson qalbi kechinmalari, muhabbat, iztirob, umid va ruhiy poklanish kabi mavzular qanday poetik vositalar orqali yoritilgani ko‘rsatib beriladi. Faxriyor uslubining o‘ziga xosligi, so‘z tanlovi va badiiy obrazlar tizimi tahlil qilinib, uning she’riyatidagi lirizmning chuqurligi hamda falsafiy mazmuni yoritiladi. Tadqiqot natijasida Faxriyor she’riyatida tuyg‘ular jilvasi inson ruhiyatining nozik qatlamlarini ochib beruvchi asosiy badiiy kuch ekanligi aniqlanadi.

Kirish. Mustaqillik davri o‘zbek adabiyotining ko‘zga ko‘ringan shoirlaridan, o‘z xalqi ruhiyatini, orzu-armonlarini qisqa so‘z bilan ifodalay oluvchi ijodkorlardan biri Faxriyor o‘zining yoniq she’riyati bilan boshqa shoirlardan ajralb turadi. Uning she’rlari o‘ziga xos bo‘libgina qolmay, ko‘plab auditoriya tomonidan iliq qarshilangan va o‘zining muxlislariga ham ega. Boisi uning ijodida falsafiylik va teranlik keng o‘rin egallagan. Uning she’rlarini o‘qir ekansiz, nazaringizda har bir so‘z tilga kirib nimalardir deyotgandek, o‘z bag‘rida ulkan falsafiylik olib kelgandek bo‘ladi. Bu esa o‘quvchini shoirning ichki olamiga olib kiradi. Misol uchun, muhabbat va inson o‘rtasidagi chigallikni, noaniqlikni va mavhumlikni shoir o‘zining “Sog‘inch” she’rida ifodalab beradi.

Ko‘z yosh bo‘lib
Derazangni chertadi yomg‘ir
Derazang –
Yuragimning chashmi giryoni.
Sen ochmaysan.
Derazangga bag‘ringni berib turasan.
Derazaga urilar
Yomg‘irlarni,
Shamollarni tutasan,
Seni entiktirgan,

Ko'kragingdan chiqib ketolmayotgan,
Namiqqan
Momiq bir havo.
Qaydan ko'z yosh tegdi ichki havoga,
Yig'lagan menman, axir,
Ichkarida sendan boshqa kimarsa yo'q.[1]

Bu yerda "Ichki havo" nima o'zi, she'rning maqsadi, chigalligi aynan shu nuqtada ochilgandek bo'ladi. Negaki, oshiq qalbiga ham ko'z yoshi tomgandek, balki bu mashuqaning ham ko'ngliga yog'gandir. Oshiq his qilgan tuyg'u shu qadar kuchli ekanki, uning ko'z yoshlari yomg'irga aylanib mahbubasining derazasini chertmoqda. Ularning orasiga qayerdandir sovuqchilik tushgan, shuning uchun ham ikkalasi ham g'amgin holatda tasvirlanmoqda.

Agar nimadandir juda siqilsangiz, o'zingizdan-o'zingiz entikib ketasiz.Qandaydir bir narsa bo'g'zingizga kelib tiqiladi. Shuni chiqarib yubormaguncha tinchlik topolmaysiz. Shoir yuqoridagi "Sog'inch" she'rida aynan shu hissiyotni rang-barang tarzda o'quvchilariga taqdim etadi.

Seni sendan izladim yo'qsan
Egalari ko'chib ketgan uy kabi
Bo'm-bo'sh turibsan.
Faqat tashlandiq uyda
Sedan chiqib qolgan mushuk misoli
Ko'ksingni ichdan tirnar bir nima…[2]

Ahamiyat beradigan bo'lsak she'rda bir satr tugagach ikkinchi satrga o'tilganda gap tugaydimi, yo'qmi keying satr ham bosh harf bilan boshlanadi, lekin biz tahlil qilayotgan she'rlarda buning aksini ko'rmoqdamiz. Bu sarbast she'rning bir unsur hisoblanadi. Shoir bu she'rda inson o'zligini yo'qotishi oqibatlarini ifodalashga harakat qiladi. Lirik qahramon yaqin kishisini qidiradi-yu, lekin topolmaydi. U qarshisida unga qarab turibdi, ammo lirik qahramon uni hamon qidirmoqda, boisi shoir qidirgan inson u emasdi. Balki uning o'zini emas, aksincha, uning qaynoq qalbini, nurli chehrasini, pokiza tuyg'ularini, osmon qadar cheksiz orzularini topolmayotgandir. Bir o'qishda fikr lirik qahramon sevgilisiga tegishlidek tuyulishi mumkin, agar shunday bo'lsa, nega uning asl holati yo'q, u qayerga ketdi, nega qahramonimizni yolg'iz qoldirdi ekan. Gap shundaki, insonga "DARD" deb atalmish ne'mat ato etilgan. Uni his qilgan har qanday inson o'zligini ma'lum muddat yo'qotib qo'ymog'i yurgan gap. U xuddi egasiz uy kabi huvillab qolgan, mushuk misol mudrayapti, ichini bir nima tirnaydi-yu, lekin uni hech kimga bildirmayapti. Bir qarashda oddiy so'zlar bilan ifodalangandek, ohangdorlikka ega bo'lmagandek ko'ringani bilan bu she'r kuchli falsafiy ma'noga egaligi bilan ahamiyatlidir.

[1] Faxriyor. She'rlar// www.ziyouz.com kutubxonasi.
[2] Faxriyor. Ayolg'u – Toshkent. Sharq, 2000. 15-bet.

Faxriyorning "Omonimona" she'ri boshdan oyoq tajnis san'atiasosida qurilgan bo'lib shoirning o'zi bir so'zning ikkinchi tajnisini o'zi ixtiro qiladi.

Ko'ngil,
Ko'ngil![3]

1-so'z insonning qalbi tushunchasini bildiruvch mavhum ot bo'lsa, 2-so'z ko'n fe'liga –gil istak maylini hosil qiluvchi qo'shimcha qo'shilishi yo'li bilan ko'ngilni nimagadir ko'nishda, chorlamoqda. She'r so'ngida esa…

Ko'ngilsizlikka.

Shoir ruhiyati shu qadar chigallashib bordiki, she'r so'ngida dilozor yoriga nisbatan ko'ngilsiz deb mos o'xshatish topdi. Chunki ko'ngilsiz, yorigamehr-muhabbati yo'q insongina unga ozor beroladi, zahmat yetkazoladi va oh-vohlariga beparvo bo'loladi. Sevmagan insonni sevishdan, undan umid qilishdan foyda yo'qligi uchun ham shoir lirik qahramonning ko'ngliga murojaat qilib bu ishqdan kechishga da'vat etmoqda. Oshiqqa nisbatan beparvo yorni gulag qiyos etib, lirik qahramonni gulsiz yashashga chorlamoqda.

Uning she'rlari go'yoki yechib bo'lmaydigan tugunga o'xshaydi.

Xiyonat qilolmas hech kim pulchalik.
G'animlar dushmanligi do'stlik bo'lib tuyular, hatto,
Dushmanligi oldida pulning.
Qirq gazli shamshir bilan
Kesib bo'lmas pulning boshini.
Darvoqe, pulning boshi yo'q.
Unga bosh bermagan robbil olamin.
Yo'qsa sal insofga kirarmidi u, o'ylab ko'rarmidi…[4]

Ijodkor yuksak falsafiylik bilan davr muammolarini ham keng omma muhokamasiga qo'ya olgan. Negaki pul muammosi butun insoniyatni qiynab kelayotgan muammolardan biri edi. Odamlar orasida mulkiy tabaqalanish davom etar ekan, pul muammosiga bot-bot duch kelinaveradi. Pulning, boylikning vafosizligi barchaga birdek ma'lum, bugun sizning qo'lingizda bo'lgan millionlab boylikning ertaga ham sizda bo'lishiga hech bir kafolat yo'q. u ertaga boshqa kishining mulkiga aylanishi hech gap emas.

Sevimli yozuvchimiz Nazar Eshonqul shoirning "Izlam" to'plamini o'qib chiqargan xulosalarini "Izlash azobining totlari" nomi ostidagi o'ziga xos maqola bilan bayon qildi va shoirning o'ziga xos uslubiga quyidagicha ta'rif berdi: "Men she'rni timsollar tilida gapirish san'ati deb tushunaman. Ko'z oldida turgan narsa – hodisaning yangi timsoli – metaforasini, yangi manzarasini, yangi ko'rinishini, yangi qirrasini ritmikada bera olish san'ati – men uchun shoirlikdir.[5]

Ayniqsa "Yurak umidlarning mozori" metaforasi hammasidan ham ko'ra fikrni o'ziga ko'proq tortadi Nega bu ta'rif qo'yildi, biror sababi border, bu ham o'zi

[3] Faxriyor. Geometrik bahor – Toshkent. Ma'naviyat, 2004. 26-bet.
[4] Faxriyor. Dardning shakli. 8-9-bet. – www.ziyouz.com kutubxonasi
[5] Nazar Eshonqul. Izlash azobining totlari – www.ziyouz.com kutubxonasi

bilan talay falsafiylik tashib kelayotgandir, balki. Bir narsaga chin dildan erishmoqni orzu qilsangiz, uni hayotingizning mazmuniga aylantirsanguiz-u, u puch bo‘lib chiqsa, shu emasmi yurakning mozorga aylanishi, axir shu emasmi o‘lik orzularga yurakning mozor bo‘lishi.

Gunohsizlik tavbasi
Ma’yus tabassumingda
Men qilmagan gunohlar bir-bir
Jilvalanar shikasta, ayanch
Qaroqlarga qalqib chiqmagan
Bir tomchi yosh
Bo‘g‘zimga tiqilar xo‘rsiniq bo‘lib,
Bo‘g‘zimni tiladi baxt siniqlari.
Kimdur gunohidan tavbalar qilsa,
Men qilmagan gunohim uchun
Tiz cho‘kishga turibman tayyor.
Lekin
Gunohsizlikni
Na sen kechirasan,
Na Parvardigor.[6]

Soya, o‘lim,marhumlar, gunoh, umidsizlik Faxriyor asarlarining yetakchi mavzu unsurlari sanaladi. Postmodernistik she’riyatda bu mavzularning yetakchi plan kasb etishi, janr talabidan kelib chiqqan. Shoirning “Izlam” to‘plami postmodernistik janr ixlosmandlari uchun o‘ziga xos tuhfa bo‘la olgan. Undagi g‘oya o‘tkinchi dunyo haqidagi hukmlarni o‘qish jarayonida shoirni bu dunyo kishisi emas degan degan fikrga kela boshladim. U, nazarimda, butunlay boshqa olam fuqarosi degim keladi. Yuqorida biz tanishgan she’r shoir tanlagan yo‘nalishining o‘ziga xos ifodasi sifatida alohida ajralib turadi. Ijodkor hayotni teranlik bilan kuzata oladi, kerakli xulosalarni, kerakli vaqtda chiqara oladi.

Ma’yus tabssumingda men qilmagan gunohlar bir-bir
Jilvalanar shikasta, ayanch.

She’rda gunohsiz gunohkorga aylangan shoirning lirik qahramoni, o‘zining o‘zligiga, ruhiyatiga murojaat qiladi. U o‘zligi oldida ham, Yaratgan oldida ham qilmagan gunohi uchun gunohkor. Nega? Nima uchun? Degan savollarga javob topishga harakar qilib “Tush” she’ridan javob topgandek bo‘ldim.

Bir she’r yozmoqlik va’dasin berib
Ilhom kelishini kutib yashash gunohimmikin…

Shoirlik – insonga Alloh tomonidan berialagina oliy ne’matladan biri. Shoir bo‘ladimi, yozuvchimi Yaratgan ilhom bersagina qo‘liga qalam oladi, ijod qiladi. Majburan yaratilgan ijodiy ishning na qadri va na qimmati bo‘ladi. Yelkasiga

[6] Faxriyor. Dardning shakli. – www.ziyouz.com kutubxonasi

shoirlik mas’uliyatini olgan shoir, ilhomsizlikdan aziyat chekmoqdaki, buning uchun o‘zini gunohkor sanamoqda.

Faxriyorning o‘y va mulohazaga boy she’rlari, go‘yoki shifobaxsh buloq suvi yanglig‘ o‘z o‘quvchilarining dardiga malham bo‘lishda davom etmoqda. U kabi shoirlar bor ekan she’riyat ixlosmandlari falsafiy fikrlash va mantiqiy mushohada yuritishdan charchamaydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Faxriyor. *Tanlangan asarlar*. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015.
2. Karimov, N. *Zamonaviy o‘zbek she’riyati rivojida individual uslub masalalari*. — Toshkent: Fan, 2018.
3. Qo‘chqor, N. *Yangi she’riyat ufqlari*. — Toshkent: Akademnashr, 2020.
4. Yo‘ldoshev, M. *O‘zbek adabiyotida lirizm an’analari*. — Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2016.